

Nasriddinova Maxbuba Sardorbek qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali Ijtimoiy-gumanitar fakulteti Filologiya

tillarni o'qitish ingliz tili yo'nalishi talabasi

Mamatkulov Abdulxapiz Latipovich

Qo'qon universiteti Andijon filiali. filologiya fanlari nomzodi, professor, (PHD)

JADIDLARDAN Z AVLODIGACHA: O'ZBEK NASRINING RIVOJ YO'LI, KITOBNING UNUTILGAN RUHI VA KITOBXONLIKNI TARG'IB QILISH

ABSTRAKT (ANNOTATSIYA): Zamonaviy o'zbek jamiyatida kitobxonlik darajasining pasayib borayotgani, ayniqsa, Z avlodi orasida adabiyotga qiziqishning sustligi dolzarb muammo sanaladi. Shu bilan birga, adabiyotimiz tarixiga nazar tashlanganda XX asr boshlarida jadid ijodkorlarining o'zbek adabiyotini shakllantirish va millatni ma'rifat sari yetaklashdagi xizmati beqiyosdir. Maqolada tarixiy-adabiy tahlil, muqoyasaviy yondashuv, diskussiv metodlar hamda yoshlar o'rtasida olib borilgan ijtimoiy so'rov natijalari asosida muammo yoritiladi. Tadqiqot davomida jadid nasrining asosiy g'oyaviy va estetik jihatlari o'rganildi, ularning hozirgi kun yoshlariga qanday ruhiy, ma'naviy ta'sir o'tkazishi mumkinligi tahlil qilindi. Z avlodiga mos targ'ibot uslublari belgilandi: raqamli platformalar orqali kitobxonlikni ommalashtirish, zamonaviy yozuvchilar bilan bog'liqlikni kuchaytirish, o'quv dasturlarida milliy nasr namunalariga kengroq o'rin berish zarurligi aniqlashtirildi.

Kalit so'zlar : adabiyot, tafakkur, kitobxonlik, jadidlar, taraqqiyot, uyg'onish, raqamli axborot, zamonaviy, an'anaviy, millat, ruh, ziyolilar.

ОТ ДЖАДИДОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ Z: ПУТЬ РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЫ, ЗАБЫТЫЙ ДУХ КНИГИ И ПРОДВИЖЕНИЕ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ

Аннотация : Уровня грамотности в современном узбекском обществе, особенно среди поколения Z, является острой проблемой. В то же время, если обратиться к истории нашей литературы, то вклад писателей-джадидов начала XX века в формирование узбекской прозы и в движение нации к просвещению не имеет себе равных. В статье проблема исследуется на основе историко-литературного анализа, сравнительного подхода, дискурсивных методов, а также результатов социологического опроса, проведенного среди молодежи. В ходе исследования были изучены основные идейно-эстетические аспекты джадидской прозы, а также проанализировано их возможное духовно-нравственное воздействие на современную молодежь. Были выявлены методы продвижения, подходящие для поколения Z: отмечена необходимость популяризации чтения через цифровые платформы, укрепления связей с современными писателями, большего акцента на образцах национальной прозы в образовательных программах.

Ключевые слова : литература, мысль, чтение, джадиды, развитие, возрождение, цифровая информация, современный, традиционный, нация, дух, интеллектуалы.

FROM THE JADIDS TO GENERATION Z: THE DEVELOPMENT PATH OF UZBEK PROSE, THE FORGOTTEN SPIRIT OF THE BOOK, AND THE PROMOTION OF READING CULTURE

Abstract: The declining level of reading in modern Uzbek society, especially among generation Z, is a pressing problem. At the same time, when looking at the history of our literature, the contribution of Jadid writers in the formation of Uzbek prose and leading the nation towards enlightenment at the beginning of the 20th century is incomparable. The article sheds light on the

problem based on historical and literary analysis, a comparative approach, discursive methods, and the results of a social survey conducted among young people. During the research, the main ideological and aesthetic aspects of Jadid prose were studied, and what kind of spiritual and moral impact they can have on today's youth was analyzed. Propaganda methods suitable for generation Z were identified: the need to popularize reading through digital platforms, strengthen connections with modern writers, and give a wider place to national prose samples in educational programs was clarified.

Keywords: literature, thought, reading, Jadids, development, revival, digital information, modern, traditional, nation, spirit, intellectuals,

Kirish

Har bir millatning ma'naviy hayoti, o'zligini anglashida adabiyotning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, nasr janri — jamiyatning ijtimoiy, madaniy va tarixiy jarayonlarini aks ettirishda asosiy vositalardan biridir. O'zbek nasrining rivojlanishi, uning shakllanishida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy muhitlari chuqur ta'sir ko'rsatgan. Shu nuqtai nazardan, XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati o'zbek madaniyati va adabiyotida tub burilish yasadi. Jadidlar — milliy uyg'onish va taraqqiyot yo'lida kurashgan ziyolilar, ularning ijodi o'zbek nasriga yangi mazmun, yangi shakl va yangi ruh bag'ishladi. Ular millatni ilm-fan, ma'rifat sari yetaklashni asosiy maqsad qilib qo'ydilar, shu bilan birga, adabiyotni xalqni uyg'otish, tanqid qilish va o'zgarishga chorlovchi kuch sifatida ko'rdilar. Bugungi kunda esa texnologiyalar tez rivojlanayotgan, axborot oqimi juda ko'p bo'lgan sharoitda yoshlar orasida an'anaviy kitobxonlik darajasi pasaymoqda. Ayniqsa, Z avlodi — 2000-yildan keyin tug'ilgan yoshlar orasida kitob o'qishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada kamaygan. Bu holat milliy ma'naviyat, madaniyatning uzoq muddatda rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday ekan, jadid ijodkorlarining o'zbek nasrini shakllantirishdagi roli va ularning ma'naviy merosini zamonaviy yoshlar, ayniqsa, Z avlodiga yetkazish, ularni kitobxonlikka qaytarish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada biz jadidlar davridan hozirgi kungacha o'zbek nasrining rivoj yo'llarini o'rganamiz, kitobning unutilgan ruhini tiklash masalalarini ko'rib chiqamiz va Z avlodiga kitobxonlikni targ'ib qilish yo'llarini tahlil qilamiz. Zamonaviy o'zbek adabiyoti, ayniqsa nasr janri, milliy tafakkur va madaniy merosning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Nasr orqali xalqning ijtimoiy hayoti, ruhiy kechinmalari va davr muammolari badiiy ifoda topadi. Jadidchilik harakati o'zbek adabiyoti tarixida yangilanish, uyg'onish va ma'rifat g'oyalarini olib kirgan kuchli harakat sifatida namoyon bo'ldi. Ular o'z asarlari orqali milliy o'zlik, ma'naviyat va ijtimoiy adolat g'oyalarini ilgari surdilar. Jadidlar ijodining asosiy yo'nalishi — xalqni uyg'otish, ma'rifatli qilish, adabiyot orqali islohotga yetaklash bo'lgan.

O'zbek nasrining rivojlanish yo'li

O'zbek nasrining rivojlanish yo'li ko'p bosqichli, murakkab va sarmazmun tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. XX asr boshlarida jadid ijodkorlari asos solgan zamonaviy nasr o'zining ilk badiiy kuchini ijtimoiy ongini uyg'otish, milliy o'zlikni anglash, jamiyatdagi muammolarni badiiy tahlil qilish orqali namoyon etgan edi. Jadidlar merosi bugungi kunda ham yosh avlodni ma'naviy yuksaltirish, tafakkurini boyitish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kitobning "unutilgan ruhi"ni qayta jonlantirish, ayniqsa, Z avlodi orasida kitobxonlikni zamon talablari asosida targ'ib qilish orqali amalga oshiriladi. Bu esa nasr orqali milliy o'zlik va madaniyatni asrab qolish yo'lida muhim qadamdir.

Jadid adiblari — Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va boshqalar — o'zbek nasriga realizm, ijtimoiy tanqid, tarixiy xotira va ma'rifatparvarlik ruhini olib kirdilar [7]. Mustamlaka yillarida nasr asosan mafkuraviy ruhda shakllandi. Sovet davrida G'afur G'ulom,

Oybek, Said Ahmad, Pirimqul Qodirov kabi yozuvchilar inson ruhiyati, tarixiy mavzular, axloqiy-ijtimoiy muammolarni yoritishda kuchli badiiy maktab yaratdilar. Masalan, Oybekning “Navoiy”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani o‘zbek tarixiy romanlarining yuksak namunalari hisoblanadi [9]. 1990-yillardan keyin nasr yangicha g‘oya va shakllar bilan boyidi. Erkin A‘zam, Isajon Sulton, Xurshid Do‘stmuhammad, Muhammad Ali kabi yozuvchilarning asarlarida inson ruhiyati, jamiyatdagi ma‘naviy iztiroblar, o‘zlik izlanishlari, falsafiy savollar asosiy mavzuga aylandi. Bu davrda nasr tobora chuqurlashib, shaxsiyat, ma‘naviylik, axloqiy tanlovlar markazga chiqdi [5]. Ammo bugungi davrda o‘zbek nasrining rivojlanishida jiddiy xavf tug‘dirayotgan muammo — kitobning unutilgan ruhi, ya‘ni kitobga, o‘qishga bo‘lgan munosabatning pasayib borayotganidir. Jadidlar “Kitob – ma‘rifat chirog‘i” degan fikrni targ‘ib qilgan bo‘lsalar, hozirgi kunda kitobxonlik madaniyati ko‘plab yoshlar orasida chekinmoqda. Afsuski, kitob bugun ko‘plab yoshlar hayotida o‘zining o‘sha ilhomli, ruhiy, ma‘rifiy o‘rnini yo‘qotib bormoqda. Bunga internet, ijtimoiy tarmoqlar, qisqa va soddalashgan axborot oqimlari sabab bo‘lmoqda. O‘quvchi chuqur matnga, murakkab badiiy fikrga emas, oson hazm bo‘ladigan ko‘ngilochar axborotga o‘rganmoqda. Bu esa o‘zbek nasrining dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda [4]. Shu bois, bugungi kun adabiyoti uchun asosiy vazifalardan biri — kitobxonlikni targ‘ib qilish, kitobning asl ruhini tiklash, uni yana hayotimizning markaziga olib chiqishdir. Bunda yozuvchi, o‘qituvchi, ommaviy axborot vositalari, maktab va oilaning har biri o‘z rolini bajarishi lozim. Yozuvchi — chuqur g‘oyali, o‘quvchini o‘ziga tortadigan asar yozmog‘i, o‘qituvchi — yosh avlodni mutolaa madaniyatiga yetaklamog‘i, ota-ona — farzandga badiiy adabiyotni sevdirishi va ularga o‘zlari istagan janrdagi kitoblarni olib berishligi lozim. Shu jihatdan qaraganda, bugungi zamonaviy o‘zbek nasri — nafaqat badiiy yuksalishning, balki ma‘naviy tiklanishning ham bir vositasidir. U jamiyatga faqat voqealar hikoyasi emas, balki savollar, izlanish, ruhiy uyg‘onish olib kirishi zarur. Kitob — bu nafaqat ma‘lumot, bu — tajriba, hayot maktabi, milliy ong vositasi. Uning ruhi tiklansa, nasr ham, jamiyat ham yutadi.

XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati o‘zbek adabiyoti va umuman, milliy tafakkur taraqqiyotida tub burilish yasadi. O‘zbek nasrining taraqqiyot bosqichlari tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, har bir davr adabiy jarayonga o‘ziga xos ta‘sir ko‘rsatgan [2]. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi ziyolilar nafaqat adabiyotga yangi mazmun olib kirdilar, balki millatni uyg‘otishga harakat qildilar. Ular o‘z asarlarida xalqni ilmga, taraqqiyotga, erkin fikrlashga, mustaqil yashashga chorladilar. Bu g‘oyalar o‘sha davr uchun jasorat sanalgan bo‘lsa-da, ularning adabiy merosi bugungi kun o‘zbek nasrining ma‘naviy poydevorini tashkil etadi.

Abdulla Qodiriy o‘zining “O‘tkan kunlar” romanida tarixiy mavzular orqali ijtimoiy adolatsizlik, mustabidlik, tanlov erkinligi kabi dolzarb muammolarni ko‘taradi. Bu asar orqali o‘zbek nasrida birinchi marta roman janrining zamonaviy shakli paydo bo‘ldi. Shu jihatdan, Qodiriy nafaqat ijodkor, balki adabiy yo‘nalish yaratuvchisi sifatida ham qadrlanadi. Cho‘lpon esa “Kecha va kunduz” romanida shaxsiy erkinlik, ayol taqdiri, jamiyatdagi ruhiy ezilishlar kabi murakkab muammolarni ochib beradi. U inson ruhiyatiga chuqur kirib bora olgan yozuvchilardan biri sifatida tanilgan. Uning uslubi, estetikasi va poetik nasri zamonaviy yozuvchilar uchun maktab vazifasini bajaradi. Fitrat va Munavvarqori kabi ziyolilar esa o‘z publitsistik asarlari va darsliklari orqali o‘zbek adabiyotini ilmiy va nazariy jihatdan boyitgan, yangi avlod yozuvchilari uchun adabiy-estetik mezonlarni belgilab bergan. Bugungi nasrda Erkin A‘zam, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Muhammad Ali kabi yozuvchilar o‘z asarlarida jadidlar boshlab bergan milliy o‘zlikni anglash, shaxsiy iztirob, adolat, ma‘naviy yangilanish kabi mavzularni zamonaviy ruhda davom ettirmoqdalar. Ularning asarlarida ko‘pincha “jadidona ruh”, ya‘ni xalqparvarlik, tanqidiy tafakkur, jamiyat oldidagi mas‘uliyat seziladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Zamonaviy adabiyot ijtimoiy ongning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi [1] Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek nasrining ichki ruhiyatida jadidlarning fikriy ildizlari hali-hanuz

yashab kelmoqda. Faqat shakl o'zgargan, ammo mazmun — milliy uyg'onish, ma'naviy yuksalish, ijtimoiy adolat — o'z dolzarbligini yo'qotmagan. O'zbek nasrining shakllanishi va taraqqiyoti jarayoni turli bosqichlardan o'tgan bo'lsa-da, uning eng keskin burilishi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, ya'ni jadid adabiyoti sahnaga chiqqan davrga to'g'ri keladi. Jadid adiblari — Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Munzim, Elbek va boshqalar — o'z asarlari orqali xalq tafakkurini uyg'otish, milliy o'zlikni anglash, zamonaviy fikrlashni shakllantirish yo'lida tarixiy burilish yasaganlar [6]. Jadidlarning adabiy faoliyati nafaqat badiiy tasvir vositalari bilan boy bo'ldi, balki ularning asarlari orqali ma'rifiy mafkura, ijtimoiy ong, milliy uyg'onish g'oyalari ilgari surildi. Ularning har biri asarlarida xalqni ilmga, san'atga, o'zligini tanishga chorlagan. Bugungi Z avlodi (Generation Z) — bu raqamli muhitda ulg'aygan, ma'lumotni tez iste'mol qiluvchi, chuqur muloqotdan ko'ra vizual anglashni ustun qo'yuvchi avloddir. Ular kitob o'qishni qiyin va sekin jarayon deb hisoblaydi, biroq bu — ularning badiiy-estetik ehtiyojlari yo'q degani emas [3]. Zed avlodining badiiy adabiyot bilan aloqasini tiklashda jadidlar merosi boy kontent manbasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Chunki bu avlod ham axloq, qadriyat, tarixiy xotira va erkinlik haqida o'ylaydi. Shunchaki, ular bu savollarga o'z tilida, zamonaviy ifoda vositalarida javob izlaydi [8].

Zamonaviy jamiyatda esa axborot texnologiyalari tez sur'atda rivojlanib, yoshlarning ko'proq raqamli olam bilan shug'ullanishi natijasida an'anaviy kitobxonlik sustlashmoqda. Ayniqsa Z avlodi orasida badiiy adabiyotga bo'lgan e'tibor pasaygani kuzatilmoqda. Bu holat yoshlarning tafakkuri, til boyligi, ma'naviy olami uchun xavfli bo'lishi mumkin. Shu sababli jadidlar ijodi va zamonaviy kitobxonlik masalasi o'rtasida bog'liqlikni o'rganish, tarixiy tajribadan foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida raqamli texnologiyalar yoshlarning asosiy axborot manbaiga aylangan. Bu jarayonning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, salbiy ta'siri ham sezilmoqda — ayniqsa, yoshlar orasida kitob o'qish odati yo'qolib bormoqda. Badiiy adabiyot, ayniqsa o'zbek nasriga bo'lgan e'tibor susaygani — ijtimoiy ong, til boyligi va milliy o'zlikni anglashda jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Avvalgi tadqiqotlar kitobxonlik muammosini alohida ko'rib chiqqan bo'lsa-da, bu masalaga tarixiy-adabiy kontekstda — ya'ni jadidlar merosi bilan bog'liq holda qarash yetarli darajada chuqur yoritilmagan. Jadidlar o'z davrida xalqni ma'rifat sari yetaklagan bo'lsa, bugungi kunda ularning tajribasi Z avlodiga kitobni qayta sevdirdirish, ma'naviy uyg'onishga chorlash uchun kuchli manba bo'lishi mumkin. Shuningdek, bugungi yoshlarning o'qish odatlari, texnologik vositalarga bo'lgan qaramligi va raqamli axborot muhitining ustuvorligi o'rganildi. Asosiy yangilik sifatida — jadidlar merosini zamonaviy formatlarda (audiokitob, podcast, qisqa video va sahnalashtirilgan namoyishlar) targ'ib etish g'oyasi ilgari surildi va tushunib yetdimki, har qanday insonni, har qanday millat vakilini botqoqlikga botib ketgan olamidan chiqarishlik uchun hohish va ozgina bo'lsa ham, umid kerak deb o'yladim. Misol uchun 2-3 oy avval bir Xitoy yozuvchisi Yu Xuani "Yashamoq" nomli asari eng yuqori natijalarga erishdi, ya'ni barcha yosh-u kattalarni og'zidan tushmay qoldi, hattoki meni 70 yoshlik bir keksa amakim ham o'z nabirasiga o'sha kitobni sotib olish uchun juda ko'p mashaqqat chekdi, sababi: u kitob 3-marta nashrdan chiqqan ekan va 1 haftaga qolmay tugagan ekan. O'sha kitobni sotib olish uchun 1 hafta to'xtovsiz kitob do'koniga borib, o'sha kitob nashrdan chiqdimi degan savolni berib charchamadi, chunki uning nabirasi hayoti davomida birinchi marotaba o'sha kitobni o'qishni xohlayotganini aytgan edi. Avvallari amakim nabirasini kitob o'qishga targ'ib qilib har qanday takliflarni kiritgan edi, ya'ni har bir tamomlagan kitobing uchun shuncha mukofot puli beraman degan edi, ammo unga hech qachon u gaplar ta'sir qilmagan edi. Chunki u internet tarmoqlariga mubtalo bo'lgan edi. O'sha vaqtlarda, uning bobosi bir kitob do'koniga kirishida 100 talab kitob olib berishga qurbi yetib, ularni sotib olganida ham biror marta birorta kitob olib uni tamomlaganiga ko'zim tushmadi. Chunki u kitob o'qishdan qanday manfaatlar kelishi haqida hech ham o'ylab ko'rmagan edi va chang bosib turgan kitoblarga ko'zi tushgan do'stlari "nima uchun bularni qadrlamaysan, foydalanmaysan" deganlarida kitob o'qish menga emas der edi. Hayriyatki, o'sha kun keldi, bir vaqt qisqa video roliklar(shorts) ko'rib o'tirganida butun

ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lib ketgan o'sha yashamoq kitobini dovrug'ini eshitdi, barcha bloggerlar (blog yurgizuvchi insonlar) o'sha kitob haqida o'z taassurotlarini bo'lishayotgan edi, qizlar qolib o'g'il bolalarni ham yig'latishga, tafakkur qilishga majbur qilgan kitob haqida barcha malumotlarni eshitdi va birinchi marotaba o'qib ko'rishni reja qildi. Undan keyin esa kitobni o'qishga kirishib ketdi va 2 soatga qolmay bitirdi. O'zini qo'yarga joy topa olmadi, ko'zidagi yoshlarini to'xtata olmadi. Chunki kitob o'qishdagi lazzatni u his qila olgan edi. O'sha-o'sha u o'zining qilgan ishlaridan nafratlanib, afsuslangancha kelajagi uchun juda ham katta maqsadlarni oldiga qo'ydi. Shu kundan boshlab har kuni bitta kitobni olib tugatmasidan ko'ziga uyqu kelmaydigan bo'ldi. Shu yo'sinda davom etsa yiliga 365 ta kitob mutolaasi va jadidlarimizga arzigulik avlod bo'lishiga qisman yetarli emasmi? Endi esa tafakkur qilaylik ijtimoiy tarmoqlar biz o'ylaganchalik salbiymi ?

Adabiyotlar sharxi:

Mazkur tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiy va ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, jadid adabiyoti, xususan, jadid nasrining shakllanishi, g'oyaviy yo'nalishlari haqida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. A.Qodiriy, A.Fitrat, Cho'lpon, M.Behbudiy, Munavvarqori kabi jadidlarning asarlari va ular haqida yozilgan monografiyalar o'zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyot yo'lini aniqlashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, O'zbek adabiyotshunosligida jadid adabiyotining ma'naviy- estetik tahlili (O.Sharafiddinov, N.Qosimov, S.Sirojiddinov, B.Qosimov tomonidan) mukammal o'rganilgan. Biroq, bu ilmiy yondashuvlarda asosan tarixiylik, badiiyat va davriy kontekstga e'tibor qaratilgan. Z avlodining kitobxonlikka munosabati esa sotsiologik va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan bo'lib, jadid merosini yosh avlod bilan bog'lashga qaratilgan izlanishlar yetarli emas. Shuningdek, zamonaviy yoshlarning o'qish odatlari, raqamli texnologiyalar ta'siri, axborot iste'mol madaniyati haqida C.Riesman, N.Postman, R.Baudrillard kabi mualliflarning nazariyalari va ularning mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan sharxlari mavzuga muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mavjud adabiy-tarixiy manbalarni yangi metodologik yondashuv orqali o'rganish, ya'ni, jadid adabiyoti orqali bugungi yoshlarning ongiga ta'sir o'tkazish mexanizmini ishlab chiqish ushbu maqolaning asosiy ilmiy yangiligidir.

Tahlil va natijalar:

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — zamonaviy o'zbek nasrining shakllanishida jadid ijodkorlarining o'rnini tahlil qilish hamda bu tarixiy-estetik tajriba asosida Z avlodi orasida kitobxonlikni targ'ib qilishning samarali usullarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida adabiy-tarixiy yondashuv asosida XX asr boshidagi jadid nasri va zamonaviy adabiy jarayonlar o'rtasida g'oyaviy, uslubiy, ma'naviy bog'liqliklar tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi savollar asosiy mezon sifatida belgilandi:

- Jadid ijodkorlarining nasrda ilgari surgan asosiy g'oyalari qanday edi?
- Ularning bugungi kun yoshlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyati bormi?
- Z avlodi orasida kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni qanday jonlantirish mumkin? kitobxonlik pasaygan, ammo o'quvga bo'lgan ehtiyoj yo'q emas.

So'rovnomadagi natijalariga ko'ra, yoshlar o'zlarini "kitob o'qimayman" deb hisoblasalar-da, ma'naviy mazmunli, qisqa, zamonaviy shakldagi adabiy materiallarga (audiokitoblar, qisqa hikoyalar, podkastlar) nisbatan qiziqish bildiradilar. Bu esa ularning badiiy tafakkurga ochiqqligini ko'rsatadi.

1. Kitobxonlikni targ'ib qilishda vositalar va formatlar muhimligi.

An'anaviy targ'ibot usullari (so'zli targ'ibot, darslikdagi matnlar) hozirgi yoshlar uchun yetarli emas. Badiiy nasrni zamonaviy texnologik vositalar bilan birlashtirish — masalan, mobil ilovalar orqali qisqa rivoyatlar, ijtimoiy tarmoqlarda ijodiy sahifalar, vizual kontentlar — o'quvchida kitobga nisbatan motivatsiyani oshiradi.

2. Jadidlar merosini targ'ib qilish orqali milliy identitetni mustahkamlash mumkin.

Jadidlar ijodini tanishtirish, zamonaviy formatta tarjima qilish va yoshlar tiliga mos holda qayta ishlash orqali nafaqat kitobxonlikni, balki o'zbek tiliga, tarixiga, madaniyatiga bo'lgan hurmatni ham oshirish mumkin.

Jadid asarlarini: **qisqartirilgan audio shakllarda** (podkast, audiokitob), **interaktiv o'yinlar va ilovalarda** (tarixiy hikoya asosidagi sahnalashtirish), **ijtimoiy tarmoqlarda kreativ kontent** tarzida targ'ib etish orqali Z avlodiga mos tarzda qayta taqdim etish mumkin. Bundan tashqari, aytishim joizki, o'z hayot tarzida ham bir tadqiqot o'tkazishga urinib ko'rdim, shu kunlarda bizning oliy dargohimizda qisman darslar tamomlandi, har kuni 1 soat darsimiz bor ammo tushlikdan so'ng yakuniy imtixonlarimiz bor. bu 4\5 soat kutishligimizni talab qiladi, birinchi kuni hammamiz bir joyda o'tirgan paytimiz qandaydir konfliktlar bekorchilikdan chiqayotganiga guvoh bo'ldim va kutubxonaga tushib kitob o'qib o'tirishni afzal ko'ra boshladim va qolganlarga ham bu taklifni kiritganimda faqatgina 2 kishigina qiziqish bildirdi va men bilan kitob o'qishni boshlashdi avvaliga uyqu ularga to'sqinlik qildi ammo birga uyquni yengdik, 300 betlik kitobni tamomlaganimizni va olgan taasurotlarimizni eshtgan qolgan qizlarni ham keyingi kunda safi kengaygani meni juda ham xursand qildi. O'ylashimcha bu ham targ'ibotning bir usuli. Bunday yondashuvlar, bir tomondan, o'zbek adabiy merosining dolzarbligini saqlaydi, ikkinchi tomondan, zamonaviy o'quvchi ongida kitobga muhabbat va badiiy tafakkurni uyg'otadi. Shunday qilib, jadidlardan Z avlodigacha bo'lgan uzluksiz ma'naviy va badiiy meros yo'li faqat tarixiy taraqqiyot emas, balki milliy ruhning yangi kontekstda tiklanishi sifatida ham baholanishi mumkin deya olaman.

Xulosa

O'zbek nasri o'z taraqqiyot yo'lida ko'plab tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi. Jadid adabiyotidan boshlab, sovet davri, mustaqillik yillaridagi erkin badiiy izlanishlargacha bo'lgan davrda nasr o'zining uslubiy, janriy va g'oyaviy jihatdan yuksak darajada shakllandi. Bu jarayonda yozuvchilar milliy o'zlikni anglash, jamiyatdagi muammolarni ochib berish, ruhiy iztiroblarni yoritish orqali adabiyotning hayotiyligini saqlab qolishdi. Biroq bugungi kunda o'zbek nasrining oldida yangi vazifalar turibdi — bu, avvalo, kitobning qadriyat sifatida tiklanishi, kitobxonlik madaniyatining rivojlanishidir. Kitobning unutilgan ruhini qayta uyg'otish — bu faqat yozuvchining emas, balki butun jamiyatning vazifasidir. Kitob orqali inson tafakkuri, ma'naviyati, milliy ong va mustaqil fikrlashi shakllanadi. Shunday ekan, zamonaviy o'zbek nasrini rivojlantirish, uni keng ommaga yetkazish, kitobxonlikni targ'ib qilish orqali biz o'z kelajagimizni ma'naviy boyitgan bo'lamiz. Kitob o'tmishni eslatadi, bugunni o'rgatadi, kelajakni ko'rsatadi. Uning ruhi qayta tiklansa, nasr ham, jamiyat ham yuksaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ismoilov, H. (2019). *Adabiyot va zamon*. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
2. Jalolov. M (2014). *O'zbek nasrining taraqqiyoti bosqichlari*. Toshkent: Akademnashr.
3. Karimova, S. (2021) *Zamonaviy o'quvchi psixologiyasi va axborot iste'moli*. Toshkent.
4. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
5. Mahmudov N. *Zamonaviy o'zbek nasri: izlanishlar va tendensiyalar*. – T.: Akademnashr, 2016.

6. Qosimov N. (2010). O‘zbek adabiyoti va jadidchilik. Toshkent: Fan nashriyoti.
7. Qo‘chqorov S. Kitob va yosh avlod: ruhiy uyg‘onish asoslari. – T.: Ma’naviyat, 2020.
9. Turdiyev, T. (2020). Kitobxonlik madaniyati: muammolar va yechimlar. Samarqand.
10. G‘aniyeva H. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: Fan, 2003.